

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA QO'LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

To'xtayeva Dilafruz Shuhrat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti*
kuhinur2302@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Shavkat Rahmon she'riyatida uchraydigan onomastik birliklar lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shoir ijodida qo'llanilgan poetonimlarning antroponim, gidronim, etnonim, mifonim, teonim, fitonim kabi turlari aniqlanib, ularning shoir poetikasining o'ziga xosligini ta'minlashdagi badiiy-estetik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, ushbu onomastik birliklarning shoirning poetik individualligini ochib berishdagi o'rni, mazmun yuklaydigan konnotativ jihatlar hamda lingvopoetik funksiyalari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: poetik onomastika, onomastik ko'lam, allyuziv nomlar, antroponim, gidronim, etnonim, mifonim, teonim, fitonim, pretsedent birliklar, onomastik metafora, o'xshatish etaloni.

LINGUOPOETIC ANALYSIS OF POETONYMS USED IN SHAVKAT RAHMON'S POETRY

To'xtayeva Dilafruz Shuhrat qizi

Sharof Rashidov Samarkand State University
Master's student, Specialty 70230101 – Linguistics (Uzbek language)
kuhinur2302@gmail.com

ANNOTATION

In this article, the onomastic units that appear in the poetry of Shavkat Rahmon, one of the prominent figures of Uzbek literature, are analyzed from a linguopoetic perspective. The study identifies various types of poetonyms used in the poet's works such as anthroponyms, hydronyms, ethnonyms, mythonyms, theonyms, and phytonyms and examines their artistic and aesthetic functions in shaping the distinctive features of the poet's style. Additionally, the research explores the role of these onomastic units in revealing the poet's individual poetic worldview, their connotative meanings, and their linguopoetic functions within the poetic text.

Keywords: poetic onomastics, onomastic scope, allusive names, anthroponym, hydronym, ethnonym, mythonym, theonym, phytonym, precedent units, onomastic metaphor, standard of comparison.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rni masalasidir. Bu borada onomastik birliklarga badiiy matnning ko‘pqatlamliligini ta‘minlovchi poetik vosita sifatida yondashilgan bir qator tadqiqotlar yaratildi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus o‘rganilgan. Jumladan, I.Mirzaev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova hamda M.Yo‘ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida badiiy matndagi onomastik birliklar (poetonimlar)ga oid tadqiqotlarda masalalarga yondashuvning ustuvorligi integrativ xarakterga ega ekanligidadir. Ularda allyuziv nomlar, onomastik metafora, badiiy matnning onomastik ko‘lami, nomlarning intertekstuallik bilan aloqador jihatlari kabi muammolarni o‘rganish, shuningdek, onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvokulturologik omillarini ochib berish dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda ham milliy o‘zligimizni anglash, xalq ma‘naviyatini yuksaltirish, o‘zbek milliy va adabiy tili qo‘llanish doirasini kengaytirishga alohida e‘tibor berilmoqdaki, natijada tilning xalq tarixi, madaniyati va ma‘naviyatining o‘ziga xos ifodachisi, yuksak estetik qimmat hamda hadsiz ifoda imkoniyatlariga ega xazina ekanligi haqidagi oydin haqiqat barqarorlashmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolamizda o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Shavkat Rahmon ijodiyotida uchraydigan onomastik birliklarni lingvopoetik jihatdan tahlilga tortamiz. Shoir Shavkat Rahmon badiiy so‘z olamidan maydonga kelgan har bir she‘ridagi poetonimlarda shoir hayoti davomidagi kuzatishlari, quvonch-u iztiroblari, hayajoni, ruhiy tushkunliklari, baxt va baxtsizliklari, yorug‘ olam va insoniyat taqdiri borasidagi o‘y-mulohazalari, qomusiy bilimi, cheksiz-chegarasiz zakovati o‘z ifodasini topgan.

Onomastik birliklar badiiy matnda turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Bu birliklar yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq tarzda matnda ba‘zan sodda, o‘z ma‘nosida ba‘zan murakkab va turli assotsiatsiyalar bilan birgalikda ishtirok etadi. G‘oyat o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi badiiy matndagi onomastik birliklar tilshunoslikda so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivoj topayotgan fanlararo aloqadorlik tamoyillari va yondashuvlari doirasida o‘rganilmog‘i lozim. Xususan, onomastik birliklar birinchi navbatda, funksional-stilistik yondashuv tamoyillari asosida tadqiq qilinmog‘i zarur.

Bu o'rinda antroponim, toponim, zoonimlar, fitonimlar badiiy matnda o'ziga xos estetik vazifa bajarishini va turli ma'no nozikliklarini yuzaga chiqishiga xizmat qilishini ta'kidlash mumkin.

Ma'lumki, kishi ismlari milliy tafakkurning, xalq turmush tarzining, orzu va istaklarining tarjimoni bo'lib, g'oyat rang-barangdir. Bu so'zlar nomlash vazifasidan tashqari ism sohibiga munosabatni ham o'zida aks ettiradi. Kishi ismlarining badiiy adabiyotdagi qo'llanishi ham faqatgina qahramonlarni nomlashga emas, balki ijodkorning turli badiiy maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Shoir Shavkat Rahmon ijodida ham kishi ismlarining qo'llanish o'rinlarini kuzatamiz. Ular ma'lum bir poetik-stilistik vazifa bajarashi bilan o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, shoirning "Yonayotganlar" nomli she'rida qator antroponimlar ishtirok etgan bo'lib, ular ma'lum bir voqea-hodisalarga ishora qilgan, ma'lum bir poetik vazifa bajargan:

Farishta qo'llari qorayib kuygan,
Kir durra chirmagan olma yuzlarin,
Har bir Sherali hofizni suygan,
Ko'zlari g'ussali,
kichik jussali,
Ko'ksida armonning tumorday dog'I,
Deydilar gulilar yurti – Hirotda,
Zuhrosiz ravzada turmagan Tohir,
Layli va Majnunlar faqat kitobda.[1]

Ushbu she'riy parchada quyidagi ismlar ishtirok etgan: Sherali hofiz, Hirot, Gulilar, Tohir va Zuhra, Layli va Majnun. Ushbu nomlarning har biri barchamizga tanish nomlar. Ammo shunisi qiziqki, shoir nima uchun aynan mana shu she'rida ushbu nomlarni qo'llamoqda. Bu nomlar ichida Tohir va Zuhro, Layli va Majnun antroponimlari xalq orasida mashhur, ilohiy muhabbat kuychilari sifatida tillarda doston bo'lib, bu nomlarni biz juda ko'p badiiy asarlarda haqiqiy muhabbat sohiblari sifatidagi muhabbat, ayriliq, hijron etaloni bo'lib ham xizmat qiladi. Tilshunos olim A.Nurmonov ushbu antroponimlar haqida shunday yozadi: "Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, "Tohir va Zuhro" dostonida Tohir-pokiza, nuqsonsiz; Zuhro-nurli, ko'rkam; niyati qora bo'lgan qahramonga esa Qorabotir deb ot qo'yiladi ko'rinadiki, ism insonning o'z zurriyotiga bo'lgan orzu-niyatining debochasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda ham gap ko'p. Ismning tilsimini ochish, ma'nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega".[2]

Shuningdek, poetonimlar ustida olib borilgan yirik tadqiqotlardan biri D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning "O'zbek tili poetonimlarining izohli

lugʻati” nomli ishda Tohir va Zuhro poetonimlariga quyidagicha izoh berilganligini koʻramiz:

“Tohir va Zuhra” nomli oʻzbek xalq ertaklari, dostonlarining bosh qahramonining nomi. — Tohir antroponimini badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qoʻllab, “Tohir va Zuhra” dostonidagi Tohirning sandiq ichida daryoda oqib borishi syujetiga ishora qilish adabiy anʼanaga aylangan. Tohir poetonimi asosida yuzaga kelgan intertekstual matn ijodkorning turli fikrlarini ekspressiv holda ifodalashida muhim lingvopoetik vosita boʻlib keladi.

Tohir-Zuhra (yoki Zuhro) “Tohir va Zuhra” nomli oʻzbek xalq ertaklari, dostonlari bosh qahramonlarining nomlari.

Shoirning yuqorida keltirilgan sheʼriy parchasidagi Tohir va Zuhro nomlari ham parchada allyuziv nom sifatida qoʻllanilib, Zuhrosiz ravzada turmagan Tohir misralari orqali shoir Tohir va Zuhro obrazlari oʻrtasidagi chuqur muhabbatni nazarda tutish bilan birga sheʼr matnlaridagi mazmunga ham ishora qiladi. Shoirning “Yonayotganlar” nomli sheʼri chuqur maʼnoga ega boʻlib, unda urushda vafot etgan askar yigitlarning, erlarning yosh beva qolgan ayollarining hijron azoblari, chekkan iztiroblari tasvirga olingan. Ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlarini aks ettirish maqsadida shoir ularning bari hofiz Sherali Joʻrayevni suyib eshitganligiga ham urgʻu beradi. Hammamiz bilamizki, Sh.Joʻrayevning barcha musiqalari, qoʻshiqlari gʻamgin, sokin taronalarni tashkil etadi. Urushda turmush oʻrtoqlaridan ayrilgan yosh kelinchaklar shunday sokin qoʻshiqlar tinglovchisi boʻlishini yozgan.

Shuningdek, sheʼr misralarida qoʻllangan Layli va Majnun nomlari ham yuqoridagi kabi malum bir poetic vazifa bajarish uchun qoʻllangan. Bu nomlar haqida D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning “Oʻzbek tili poetonimlarining izohli lugʻati”da shunday taʼriflar keltirilgan:

Layli, Majnun 1. Layli (Laylo) va Majnun nomlari asosan muhabbat mavzusidagi sheʼriy matnlarda qoʻllanib, allyuziyani yuzaga keltirishda vosita boʻlgan.

Unda “Layli va Majnun” dostonidagi ikki oshiqning muhabbati tasvirlangan oʻrinlarga yoki dostonning muayyan syujetiga ishora qilish orqali intertekstuallik qilingan. Bu esa fikrning ixcham, ayni vaqtda chuqur mazmunli jumalarda ifodalanishiga xizmat qilgan. Lola bagʻrida nihon dogʻlarga zavqing kelmasin, Ishqini Layloga Majnun ayladi fosh, bilsa bas. (S.Sayyid. Muvashshah)

2. Layli va Majnun nomlari sheʼriy matnlarda oʻxshatish etaloni vazifasida kelib, badiiy mazmun ekspressivligi, taʼsirchanligi uchun xizmat qilgan. Jumladan, U.Nosir sheʼrni Layloga, oʻzini esa Majnunga oʻxshatish orqali sheʼriyatga boʻlgan mehri beqiyos ekanligini taʼkidlagan boʻlsa, muhabbat mavzusidagi sheʼrlarda Layli va Majnun nomlari taʼriflanayotgan sevgining behad teranligini yoritishda lingvopoetik vosita boʻlgan. Bunda oʻzbek lingvomadaniyatida Layli va Majnun ideal oshiqlik etaloni sifatida qabul qilinganligi ham muayyan ahamiyatga ega.

3. Layli va Majnun nomlari badiiy matnlarda onomastik metaforani yuzaga keltirishda vosita bo'lib kelgan. Bunda Majnun antroponimi "telbalarcha oshiq", Layli antroponimi esa "ideal ma'shuqa" ma'nosini berishga xoslanib, badiiy mazmun obrazlilik va ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan. U Laylo atagan she'riyat, Majnuningni nechun tashlading? Shu edimi oshiqqa qismat, musaddas ko'zlarni yoshlading? (R.Parfi. Usmon Nosir) [3]

Shuni ta'kidlash kerakki, antroponimlarga emas atoqli otlarning barcha tip va ko'rinishlarining badiiy matndagi o'rni funksional-stilistik nuqtai nazardan jiddiy tadqiq qilinishi lozim. Chunki badiiy asarning poetik qimmatini belgilashda bunday birliklarning funksiyasi katta. Bu borada toponimlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning fikricha, badiiy asar tilidagi toponimlarni tadqiq qilish, bir tomondan, tilshunoslikning toponimika sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri-badiiy asar tili va yozuvchi muammosiga ma'lum bir aniqlik kiritishi, shubhasizdir.[4]

MUHOKAMA

Demak, lingvomadaniy yondashuvga ko'ra pretsedent nom deb hisoblangan onomastik birliklar badiiy matnda allyuziv nom, onomastik metafora, o'xshatish etaloni kabi funksional-stilistik vazifalarda qo'llanishi mumkin. Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo'llanganda yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi. Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish usuliga allyuziya deyiladi.[5] Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida esa allyuziyaga shunday ta'rif berilgan: „Allyuziya(lot.allusio-ishora,hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy,maishiy,tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llanilgan talmeh san'atiga yaqin keladi.Farqli jihati shundaki,talmehda ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa,allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy,maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi mumkin. Ya'ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq.[4] D.Xudoyberganova allyuziv nomga shunday ta'rif bergan: „Allyuziv matnda allyuziv ko'rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi presedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita. Tilshunos allyuziv nomni allyuziv ko'rsatkichlarning bir turi sifatida ta'kidlaydi hamda allyuziv ko'rsatkichning, odatda, mashhur nomlar, jumlar yoki matnlar, ya'ni presedent birliklardan iborat bo'lishini yozadi.[6] Tilshunoslikda allyuziv nomlar muammosi bo'yicha shu kungacha ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Shunday bo'lsa-da, bu masala hamon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. O'zbek tilshunosligida ham matn tilshunosligi, xususan, intertekstuallik borasida ilgari surilgan yangicha qarashlar bu muammoning dolzarb bo'lishiga sabab

bo'ldi. Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matnni tadqiq etishda bu tushunchani chetlab o'tishning imkoni yo'qligini bir qator misollar bilan yoritib bergan.[7] O'zbek adabiyotini kuzatish shundan dalolat beradiki, allyuziv nomlar, ayniqsa she'riyatda muhim o'rinni egallaydi. She'riy matnda qo'llangan allyuziv nomlar tahlili muayyan ijodkor asarlari onomastik ko'lami haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Shavkat Rahmonning "Bozordagi afg'on bola suvrati" nomli she'rida biz bir antroponimga duch kelamiz. Shoirning bu she'rida afg'on millatiga mansub bir o'spirin bolaning tasviri yoritilgan. Unda shoir lirik qahramonining qiyofasini ochib berishda afg'on millatiga mansub bo'lgan bir kishining nomini keltiradi:

Odamzot qaynagan bozorda afg'on,
 Xo'mrayib turibsan misli tirik dor,
 xuddi boshlagudek birorta g'avg'o,
 ichingda Gulbiddin Xikmatyoring bor...[1]

Ushbu misrada keltirilgan Gulbiddin Xikmatyor afg'onistonlik siyosatchi, sobiq mujohidlar rahbari va narkobiznesmen. Xikmatyor 1979-yilda Hizb-i-Islami Xalidan tugatilgandan keyin Muhammad Yunus Xolis nomli siyosiy partiyaga asos soladi. U 1990-yillarda ikki marta bosh vazir lavozimini egallagan. Gulbuddin Xikmatyor Ghilji pushtunlarining Xaroti qabilasidan bo'lgan. U 1949-yilda Afg'oniston shimolidagi Qunduz viloyatida joylashgan Imom Sohob shahrida tug'ilgan. O'zi asli G'azna viloyatidan bo'lgan uning otasi G'ulom Qodir Qunduz shahriga hijrat qilgan. Afg'on tadbirkori va Xaroti qabilasining rahbari G'ulom Servar Nasher Xikmatyorni zukko yigit deb bilgan va 1968-yilda uni Mahtab Qal'a harbiy akademiyasiga yuboradi. Biroq, ikki yildan so'ng uning siyosiy fikrlari tufayli akademiya dan chetlashtirilgan. 1969-yildan 1972-yilgacha Hekmatyar Kobul universitetining muhandislik kafedrasida o'qigan. U universitetning birinchi yilida 149 sahifalik „The Priority of Sense Over Matter“ nomli kitob yozdi. U o'qishni tamomlamagan bo'lsa-da, izdoshlari uni „Muhandis Hikmatyar“ deb atashgan.[8] Demak, ushbu o'xshatish etaloni bo'lgan shaxs bir o'rinda kuchli siyosatchi, bir o'rinda ashaddiy jinoyatchi, bir o'rinda esa ko'zlagan maqsadidan hech toyilmaydigan, kuchli jamoatchi shaxs.

Ko'rinib turibdiki, ushbu antroponim o'xshatish etaloni sifatida she'riy matnda keltirilgan bo'lib, bu yerda tasviriylik, ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qilgan. Ijodkor afg'on bola suvratini, uning tashqi ko'rinishiga, ya'ni yuzida aks etgan ichki xarakter-xususiyatini ochib berishda mana shu epizodni kiritmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ijodkor she'riyatida uchraydigan har bir onomastik birlikka muayyan vazifalar yuklanadi, misralarning estetik kuchini oshiradi. Asar g'oyasini ochib berish, ta'kidlash va uni kuchaytirishda hamda o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini yanada yorqinroq ochib berishda muhim lingvopoetik vazifa

bajaradi. Shoir she'rlarini har tomonlama kuzatish natijasida shunga amin bo'lamizki, ijodkor she'riyatida eng ko'p uchraydigan onomastik birlik – antroponimlardir. Bunday lingvistik birliklar esa shoirning individual so'z qo'llash mahoratini yanada aniq ochib berishga ko'maklashadi.

Ijodkor she'rlaridagi har bir lingvistik qatlam yaratilayotgan ijod mahsulining mazmunini boyitishga xizmat qilar ekan, shoir ijodida qo'llangan har bir onomastik birliklar ham muayyan bir lingvopoetik vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Рахмон Ш. САЙЛАНМА. Тошкент: “ШАРК” нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти 1997. – Б. 215.
 2. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.- B.152
 3. Д. Худойберганава, Д. Анданиязова, Узбек тили поэтонимларининг изоҳли лугати [Матн]: / - Тошкент: Turon zamin ziyo. 2016.- 132 б.
 4. Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari.-Samarqand,2006.-b.11.
 5. Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.148.
 6. Xudoyberganova D. Lingvokulturalogiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati.- Toshkent. Turonzaminziyo,2015.- b.19.
 82. Ёўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи:Филол. фан. д-ри. ... дис. –Тошкент, 2009.
 - 8.
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Usmonov_Gayrat/Gulbuddin_Hekmatyara